



## GLOBAL LASHUV SHAROITIDA YOSHLARNI QO'LLAB- QUVVATLASH MASALALARI

M.K. Rashidova

Г. Муминова 2-босқич магистранти

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Bebaho ne'mat atalmish istiqlol tufayli mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida mislsiz o'zgarishlar yuz bermoqda. XX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat, geosiyosat, davlatlar, xalqlar o'rtasidagi aloqalar globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketayotganligi bilan xarakterlanadi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy sub'ekti hisoblanadigan yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yurtimiz kelajagi bo'lmish yoshlarga g'amxurlik qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliшi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan alohida band (4.5 band) da aks ettirilgandan keyin, 2017 yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi qo'yildi.<sup>3</sup> Mazkur dastur doirasida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidilarga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Albatta, bugungi kun yoshlarimiz juda ko'plab sohalarda o'z iqtidor va yutuqlarini namoyon qilmoqdalar. Fan va texnika, ijod, san'at va sportning barcha turlari bo'yicha yoshlar tomonidan qo'lga kiritilayotgan natijalar, albatta, insonni quvontiradi. Mamlakatimizda qabul qilingan Davlat dasturlarida, yosh avlodni hayotga qat'iy, e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 5 iyuldagи

<sup>3</sup> 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliшi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/4168749>



“Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni zamirida yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, iqtidorini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlash, yurtimiz kelajagi, ertamiz egalari bo‘lmish yoshlarga bildirilgan katta ishonch yotadi.

Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashga yo‘naltirilgan. Hozirda yoshlar faolligining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ularning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topib olishlari uchun yetarli asoslar shakllantirilishi yoshlar siyosatini amalga oshirish bosqichlarida ular kayfiyatlari, orzu-istiklari, umidlari, hayotiy maqsadlari, intilishlari va qanday yashashga qiziqishlarini ilmiy o‘rganish, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, yoshlar intilishlarini ijobiy va bunyodkorlik ishlariga yo‘naltirishga erishish o‘ta dolzarb strategik vazifalarni keltirib chiqarganligini ko‘rsatadi<sup>4</sup>

Bugungi kunda yoshlarning ong-shuurini, tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish, jismonan va ruhan sog‘lom tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb. Shu munosabat bilan mamlakatimizda yuksak ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Birgina misol yosh avlodni ruhan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash borasida muntazam ravishda sport sohasida yaratilgan imkoniyatlar va ular o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu musobaqalarda zafar quchgan yoshlarimiz yetaricha toblanib, jahon va olimpiada o‘yinlarida yuksak natijalar ko‘rsatib xalqaro arenalarda yurtimiz obro‘sini mustahkamlayotganligi barchamizga ma’lum. Bu kabi misollarni boshqa sohalarda ham juda ko‘p sanab o‘tish mumkin. Bu islohotlarning barchasi yoshlarimiz kelajagiga xizmat qilishi shak-shubhasiz.

Ma’lumki, bugun yoshlar respublikamiz aholisining 60 foizidan ko‘pini tashkil etmoqda. Shu bois, yoshlarning milliy g‘oyani anglashi, uni ishonch va e’tiqodga aylantirishi, qanday yangi qadriyatlarni shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, milliy g‘oya, bir tomonidan yoshlarni o‘zining ob‘ek’ti sifatida qarasa, ikkinchi tomonidan, yoshlar milliy g‘oyaning ilg‘or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadi. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan,adolat, halollik va ezgulik tuyg‘ulari yuksak shakllangan va uni anglab olgan bo‘lsa, qolaversa, davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida fuqaroviy mas’uliyatini chuqur his qilishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarida, ayniqsa kasbiy yo‘nalishlarini tanlashda sobitqadam, shijoatli, jasoratli va yangilikka intiluvchan fazilatlarini namoyish qila olishi jamiyatni shunchalik taraqqiyotga olib chiqadi.

<sup>4</sup> Bo‘ronova, D. (2007). Mustaqillik yillarda yoshlar siyosatining ba’zi masalalari. “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnali, № 4, 152-155.



Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashining IV qurultoyida quyidagilarni keltirib o’tdilar: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Shu ma’noda *O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek*: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko’plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi”<sup>5</sup> - deb global muammolarning mezonlarini belgilab beradi.

Albatta, hozirgi globallashuv jarayonlari eng yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlari, mehnat unumdoorligi uchun qulay sharoitlar yaratib, cheklanmagan imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bu o’z navbatida, mamlakatlarning o’zaro yaqinlashuviga, jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarining faollashuviga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga to’la qonli ishtirok etuvchi, zamonaviy ilm-fan, texnologiya yutuqlarini egallovchi, sog’lom va barkamol, erkin fikr va dunyoqarashga ega shaxslar sifatida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga yot bo’lgan turli salbiy ta’sirlardan asrab-avaylash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Bugun yoshlar faoliyatini keng qamroqli yo’nalişlarini belgilashda oila, mahalla, ta’lim va ta’limdan tashqari muassasalar faoliyatları o’rtasida uzviy hamkorlik ishlarini yangi sifat darajasiga ko’tarish muhim. Yoshlarning intellektual salohiyatini, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini aniqlash va uni maqsad sari samarali yo’naltirish, har bir yosh o’smirga hayotiy pozitsiyasini belgilash sharoitini yaratadi. Shunday ekan, yoshlarning muvaffaqiyatga erishish sirlaridan saboq bermasdan, ma’naviy salohiyatlarini oshirmasdan ko’zlangan natijalarga erishish qiyin. Zero, har bir yosh betakror o’z xususiyat fazilatlari bilan shakllanadiki, uni ro’yobga chiqarishning ilmiy-amaliy dasturlarini yaratish bilan yutuq va marralar zabit etiladi.

Muxtasar aytganda, bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning ishtiroki ularning ob’ektiv voqelikka aylandi. Yoshlarning jamiyat siyosiy hayotida o’z o’rniga ega bo’lishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy maqsad va manfaatlarining qondirilishi hamda, ularni aqlan yetuk, ruhan tetik va sog’lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas’uliyatni to’g’ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi turadigan g’oyalarni targ’ib qilish – bugungi kunning asosiy shioriga aylanmog’i lozim.

<sup>5</sup>O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi// “Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 1 iyul.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/4168749>.
2. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 1 iyul.
3. Bo‘ronova, D. (2007). Mustaqillik yillarida yoshlar siyosatining ba’zi masalalari. “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnali, № 4, 152-155.

